

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASINING XUSUSIYATLARI

I. Bayonkhanova ¹, F. Absalomova ²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillarida hurmat kategoriyasining lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Hurmat kategoriyasi nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy tuzilma va madaniy me'yorlar bilan ham bog'liq ekani ta'kidlanadi. Koreys tilidagi hurmat shakllari grammatik, morfologik va sintaktik jihatdan murakkab tizimga ega bo'lib, suhbatdoshning ijtimoiy maqomiga qarab o'zgaradi. O'zbek tilida ham hurmat darajasi til birliklari orqali ifodalanib, u muloqot madaniyati va rasmiylik darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: hurmat kategoriyasi, tilshunoslik, ijtimoiy maqom, rasmiylik darajasi 존대법 – hurmat qoidalar, 존댓말/ 높임말 – hurmat shakli, 반말 – kamsitish shakli, 격식체 – rasmiy shakl, 비격식체 – norasmiy shakl, muloqot xulqi, urf-odatlar, milliy madaniyat, murojaat so'zlari, nutq madaniyati.

Koreys va o'zbek tillarida hurmat kategoriyasining xususiyatlari

Tilshunoslikda hurmat kategoriyasi nafaqat muloqot madaniyati, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, odob-axloq qoidalar va rasmiylik darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu kategoriya turli tillarda har xil lingvistik mexanizmlar orqali ifodalanadi, biroq ularning barchasi suhbatdoshga nisbatan ehtirom va ijtimoiy maqomni anglatish kabi umumiy jihatlarga ega. Koreys va o'zbek tillari hurmat kategoriyasining murakkab tizimlariga ega bo'lib, ularning ifodalanish usullari morfologik, sintaktik va pragmatik xususiyatlar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ushbu tillarda hurmat va ijtimoiy maqomning lingvistik ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi.

Koreys tili dunyoning eng murakkab hurmat tizimlaridan biri bo'lib, uning lingvistik strukturasida grammatik, morfologik va sintaktik jihatlar asosiy rol o'ynaydi. Ushbu tizim suhbatdoshning yoshi, kasbi, ijtimoiy maqomi va rasmiylik darajasiga qarab o'zgaradi. Koreys tilidagi hurmat ifodalanish mexanizmi nafaqat grammatika bilan, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan ham bog'liq bo'lib, u kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi³.

Ushbu murakkab tizim muloqot jarayonida uchta asosiy darajaga bo'linadi:

Eng yuqori hurmat shakllari 최고 존칭 표현 – rasmiy va yuqori maqomli shaxslar bilan muloqot qilishda qo'llaniladi. Rasmiy hujjatlar, notiqlik uslubi, davlat xizmatchilari va yoshi katta insonlar bilan muloqotda ishlatiladi.

O'rta darajadagi hurmat shakllari 존댓말 – kundalik rasmiy nutq sifatida qo'llanadi. Ushbu shakl muloqotda samimiy hurmatni ifodalash uchun ishlatiladi, masalan, ustozlar, ishbilarmonlar yoki xizmat ko'rsatish sohasidagi odamlar bilan suhbatlashganda oydinlashadi⁴.

Quyi darajadagi hurmat shakllari 반말 – do'stlar, oila a'zolari va tengdoshlar o'rtasidagi norasmiy muloqotda ishlatiladi. Ushbu shaklda rasmiylik darajasi past bo'lib, suhbatdosh bilan yaqinlik ifodalanadi.

Bu tizim nafaqat fe'l shakllari va so'z tanlovi bilan, balki intonatsiya, pauza va muloqot uslubidagi boshqa pragmatik omillar bilan ham o'zaro bog'liq.

Hurmatning morfologik jihatlari koreys tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Koreys tilida fe'l qo'shimchalari va maxsus hurmat bildiruvchi so'zlar yordamida nutqning rasmiy yoki norasmiy shaklda ifodalanishligi aniqlanadi.

¹Bayonkhanova Iroda Furkatovna, Samarqand davlat chet tillari instituti, Sharq tillari fakulteti Koreys filologiyasi kafedra mudiri

²Absalomova Feruza Sharif qizi, Lingvistika: koreys tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

³ Nigina Salimova, Nomon Mirzaev. "Koreys tilida hurmat kategoriyasining ahamiyati va uning xorijlik o'rganuvchilar uchun murakkabligi." *Topical Issues of Teaching Foreign Languages*, 2024, 97-99-bet.

⁴ Salimova Nigina Bahtiyorovna, Do Seon Hui. "Koreys tilida hurmat shakli va uning muloqotdagi o'rni." *Nauchniy Impuls*, 2023, 87-90-bet.

Fe'llarning oxirgi qo'shimchalari suhbatdoshning maqomiga qarab o'zgaradi va ushbu o'zgarishlar til tizimining rasmiy yoki norasmiyligini belgilaydi. Quyida hurmatni ifodalovchi asosiy fe'l shakllari keltirilgan:

Fe'l shakli	Qo'llanilish darajasi	Misol
-습니다 / -습니다	Eng yuqori rasmiy shakl	갑니다 - Boradi
-아요 / -어요	O'rta darajadagi rasmiy shakl	가요 - Boradi
-아 / -어	Norasmiy shakl (tengdoshlar o'rtasida)	가 - Boradi

격식체 Rasmiy shakl	합쇼체(아주높임) Hurmatning yuqori darajasi	-십시오, -시지요, -소서, -나이다, -습니다, -습니까, -올시다	예 • 미안합니다, UZR. • 고맙습니다, Tashakkur
	하오체(예사높임) Hurmatning oddiy darajasi	-오, -소, -구려, -리다, -십시오	예 • 미안하오, • 고맙소.
	하계체(예사낮춤) Pasaytirishning oddiy darajasi	-(시)게, -세, -네, -나, -으이, -므세	예 • 미안하네, • 고맙네.
	해라체(아주낮춤) Pasaytirishning quyi darajasi	-아라/-어라, -(으)라, -구나, -느냐, -다, -자, -마, -니, -려무나(-렴)	예 • 미안하다, • 고맙다.
비격식체 Norasmiy shakl	해요체(두루높임) Og'zaki hurmat shakli	-아요/-어요, -(지)요, -군요, -게요, -까요	예 • 미안해요, • 고마워요.
	해체(두루낮춤) Og'zaki pasaytirish shakli	-아/-어, -아, -구먼, -군, -지	예 • 미안해, • 고마워.

Koreys tilida yoshi katta yoki lavozimi yuqori bo'lgan kishilar haqida yoki ular bilan muloqot qilayotganlarida hurmatni ifodalovchi so'zlardan foydalaniladi. Ya'ni oddiy so'zlardan o'ta farqli bo'lgan, o'zagi butunlay boshqa ko'rinishdagi so'zlarni qo'llash kerak:

죽다-돌아가시다 - vafot etmoq: 할아버지께서 돌아가셨습니다.

있다-계시다 - bor bo'lmoq: 할머니께서 댁에 계십니다.

말하다 - 말씀하시다 - gapirmoq: 할아버지께서 말씀하십니다.

자다-주무시다- uxlamoq: 아버지께서 주무십니다.

먹다-드시다-잡수시다- yemoq: 어머니께서 무엇을 드십니까?

주다 - 드리다 -bermoq: 어머니께 꽃을 드려요.

이름 - 성함 - ism: 아버지 성함이 어떻게 되세요?

나이 - 연세: 할머니 연세가 어떻게 되세요?

밥- 진지- ovqat: 할아버지께서 진지를 드십니다.

생일- 생식- tug'ilgan kun: 어머니 생식이 언제예요?

집-댁-uy: 할머니께서 댁에 계세요.

말-말씀-gap: 할아버지 말씀을 들어요

Bu tizim orqali koreys tilida suhbatdoshning ijtimoiy mavqei va munosabat darajasi aniq belgilanadi¹. Shuningdek, rasmiy holatlarda hurmat shakllari doimo ishlatilishi shart, aks holda suhbatdosh hurmatsizlik sifatida qabul qilishi mumkin.

Koreys tilida hurmat sintaktik darajada ham namoyon bo'ladi. Gap tuzilishi, fe'lining joylashuvi va so'zlarning tartibi suhbatdoshning maqomiga bog'liq bo'lib, bu muloqotning rasmiylik darajasini belgilaydi.

Rasmiy nutqda fe'l har doim gap oxirida joylashadi:

저는 서울에 갑니다 - Men Seulga boraman.

Norasmiy nutqda esa gap qisqaroq bo'lishi mumkin:

나 서울 가 - Men Seulga ketaman.

Koreys tilida hurmat shakllari bilan birga ehtirom bildiruvchi maxsus so'zlar va konstruksiyalar ham ishlatiladi². Masalan, "sen" va "siz" o'rnini bosuvchi olmoshlar turlicha bo'lishi mumkin:

나 (men) → 저 (hurmat shakli)

너 (sen) → 당신 / 귀하 - hurmat shakli

¹ Salimova Nigina Bahtiyorovna, Do Seon Hui. "Koreys tilida hurmat shakli va uning muloqotdagi o'rni." *Nauchniy Impuls*, 2023, 87-90-bet.

² Cho, Y., Lee, H.S., Schulz, C., Sohn, H.-M., Sohn, S. "Integrated Korean: Beginning 1 (Vol.2)." University of Hawai'i Press, 2010, 8-bet.

Bundan tashqari, koreys tilida suhbat davomida katta yoshdagilarga yoki yuqori maqomdagi shaxslarga murojaat qilishda muloyimlik darajasini oshiruvchi soʻz birikmalari ishlatiladi:

Batafsil tushuntirib bera olasizmi?

Norasmiiy: 너 설명할 수 있어?

Oʻrta rasmiy: 설명해 줄 수 있어요?

Eng rasmiy: 설명해 주실 수 있습니까?

Bu esa koreys tilida hurmat sintaktik jihatdan ham murakkab va nozik qoidalarga asoslanganligini koʻrsatadi.

Koreys madaniyatida hurmat nafaqat lingvistik darajada, balki muloqot strategiyalari orqali ham ifodalanadi. Bu esa pragmatik yondashuv orqali namoyon boʻladi¹.

Yuqori maqomli inson bilan suhbatda muloyimlik strategiyalaridan foydalanish:

Uzr soʻrash va minnatdorchilik bildirish majburiy hisoblanadi.

Qoʻshimcha iltifot yoki muloyim iboralar ishlatiladi.

Jismoniy til va hurmat:

Yoshi ulugʻ insonlar bilan gaplashganda koʻzga tik qarash odobsizlik sanaladi.

Boshni egib salomlashish koreys madaniyatida hurmat belgisi sifatida qabul qilinadi.

Bunday pragmatik xususiyatlar koreys tilida hurmat tushunchasining lingvistik chegaralardan chiqib, ijtimoiy muomala qoidalari bilan uzviy bogʻlanganligini koʻrsatadi. Koreys tilida hurmat kategoriyasi morfologik, sintaktik va pragmatik jihatlarida aniq namoyon boʻladi².

Feʼl shakllari va maxsus qoʻshimchalar orqali rasmiy va norasmiy nutq farqlanadi. Gap tuzilishi va murojaat shakllari orqali suhbatdoshning maqomi belgilanadi. Muloqot strategiyalari va jismoniy til orqali hurmat darajasi mustahkamlanadi. Koreys tilida hurmat ifodalanishi muloqot madaniyatining muhim qismidir. U morfologik, sintaktik va leksik jihatlar orqali amalga oshiriladi va muloqot ishtirokchilari oʻrtasidagi ijtimoiy maqom, yosh va kasbiy holat kabi omillar bilan chambarchas bogʻliqdir. Ushbu boʻlimda koreys tilida hurmat ifodalashning morfologik va sintaktik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Morfologik jihatdan koreys tilida hurmat feʼl qoʻshimchalari va maxsus hurmat bildiruvchi soʻzlar orqali ifodalanadi. Feʼl soʻz oxiriga maxsus qoʻshimchalar qoʻshilishi orqali gapning rasmiy yoki norasmiy shaklda ifodalanishligi belgilanadi. Ushbu jarayon koreys tilining politeness-based (hurmatga asoslangan) feʼl tizimini tashkil qiladi.

Hurmat darajasini belgilovchi feʼl shakllari ixtiyoriy emas, balki grammatik jihatdan qatʼiy qoidaga ega boʻlib, nutqning rasmiylik darajasiga qarab oʻzgaradi. Bu koreys tilining agglutinativ til sifatida rivojlanganligini ham tasdiqlaydi.

Koreys tilida feʼl shakllari muloqot kontekstiga qarab oʻzgaradi. Quyidagi jadvalda koreys tilida hurmat darajasiga koʻra feʼl shakllari keltirilgan:

Feʼl shakli	Hurmat darajasi	Qoʻllanish sohasi
-습니다 / - ㅂ니다	Eng yuqori hurmat shakli	Rasmiy hujjatlar, notiqlik nutqi, katta yoshdagilar va rahbarlarga murojaat
-아요 / -어요	Oʻrta darajadagi rasmiy shakl	Kundalik hurmatli nutq, ustozlar va rasmiy xizmat vakillari bilan suhbat
-아 / -어	Norasmiiy shakl	Doʻstlar, tengdoshlar va yaqinlar oʻrtasidagi muloqot

Yuqoridagi kabi oʻzagi boshqa boʻlmagan feʼl va sifatlarga ‘-(으)시’, ‘-(으)세요’ qoʻshimchasini qoʻshish orqali hurmat ifodalanadi.

가다	가십니다	가세요	Ketyaptilar
앉다	앉으십니다	앉으세요	Oʻtiryaptilar
건강하다	건강하십니다	건강하세요	Sogʻlar

¹ Salimova, Nigina Bahtiyorovna; Do, Seon Hui. "Koreys tilida hurmat shakli va uning muloqotdagi oʻrni." *Nauchniy Impuls*, 2023, 87-90-bet

² Cho, Y.; Lee, H.S.; Schulz, C.; Sohn, H.-M.; Sohn, S. "Integrated Korean: Beginning 1 (Vol.2)." University of Hawai'i Press, 2010, 8-bet.

Koreys tilining yana bir o'ziga xos jihati unda bosh kelishikda ham qo'shimcha borligidir. Bosh kelishik qo'shimchasi '-이/-가' yoki '-은/-는' bo'lib, uning ham hurmat shaklidagi qo'shimchasi mavjud: '-께서'.

형이 회사에 갑니다. - Akam firmaga ketyapti.

아버지께서 회가에 가십니다¹. - Dadamlar firmagaketyaptilar.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi '-에게 /-한테' bo'lib, uning hurmat shakli '-께' dir.

친구한테 선물을 주어요. - Do'stinga sovg'a beryapman.

선생님께 선물을 드려요. - Ustozimga sovg'a beryapman.

Chiqish kelishigi qo'shimchasi '-에게서, -한테서' bo'lib, uning hurmat shakli '-께로부터' dir.

동생한테서 돈을 받았어요. - Ukamdan pul oldim.

아버지께로부터 돈을 받았어요. - Dadamdan pul oldim.

Murojaat qilinganda ham ismlarga '씨' qo'shib murojaat qilinadi va shu bilan hurmat ifodalanadi.

수미 씨, 언제 한국에 오세요? - Sumi xonim, qachon Koreyaga kelasiz?

Murojaat qilishda hurmat uchun yana bir qo'shimcha '-님' bo'lib, odatda kasb so'zlariga kishilarning lavozimini anglatuvchi so'zlarga qo'shib qo'llaniladi.

사장 - 사장님 - direktor,

교수 - 교수님 - professor;

변호사 - 변호사님 - advokat.

사장님, 출장 잘 다녀오셨습니까? - Direktor janoblari, safarga yaxshi borib keldingizmi?

Bundan tashqari birovga xat yozganda hurmat ma'nosida '귀하' - 'siz' so'zi ishlatiladi².

Vatan, mamlakat, oila, ota-ona, kabi so'zlar bilan egalik olmoshi qo'llanilganda mening emas, balki bizning - '우리' qo'shimchasidan foydalaniladi. Bu esa hurmat hamda ko'pchilikka tegishlilikni anglatadi. Lekin bu o'zbek tilida g'aliz tuyulganligi sababli mening deb tarjima qilish to'g'ri hisoblanadi.

우리 가족 - mening(bizning) oilam,

우리 아버지 - mening(bizning) otam kabi³.

Bu tahlil shuni ko'rsatadiki, koreys tilida hurmat fe'l qo'shimchalari yordamida morfologik darajada rasmiy yoki norasmiy nutqni aniqlash mumkin.

Hurmat ifodalashda maxsus leksik birliklar ham muhim o'rin tutadi. Koreys tilida oddiy so'zlarning hurmat shakllari mavjud bo'lib, ular suhbatdoshning maqomiga qarab qo'llaniladi.

Oddiy fe'l shakli	Hurmat shakli	Ma'nosi
먹다	드시다	Yemoq
말하다	말씀하시다	Gapirmoq
있다	계시다	Bo'lmoq

Bu jihatlar hurmatni nafaqat morfologik, balki leksik jihatdan ham ifodalash mumkinligini ko'rsatadi.

Koreys tilida hurmat sintaktik darajada ham aniq namoyon bo'ladi. Suhbat davomida gap tuzilishi, fe'l joylashuvi va so'zlarning tartibi suhbatdoshning ijtimoiy maqomi va rasmiylik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Rasmiy va norasmiy nutqda sintaktik farqlar

Koreys tilida rasmiy va norasmiy nutqdagi sintaktik farqlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

Rasmiy nutq (Eng yuqori hurmat shakli)	Norasmiy nutq (Quyi daraja)
저는 서울에 갑니다 - Men Seulga boraman.	나 서울 가 - "Men Seulga ketaman."

¹ 한국어초급II. 선문대 한국어 교육원. 2020. 58쪽.

²

<https://m.blog.naver.com/PostView.naver?isHttpsRedirect=true&blogId=sskn6627&logNo=220619787498>

³ '우리' 개념과 존칭어 사용을 통해 문화 교육. 교수 하스믹 카바비얀. 예레반 국립 언어 대. 2018. 2쪽.

Rasmiy nutq (Eng yuqori hurmat shakli)	Norasmiy nutq (Quyi daraja)
할머니께서 오셨습니다- "Buvingiz keldilar."	할머니 왔어- "Buving keldi."

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, rasmiy nutqda so'zlar to'liq ishlatiladi va fe'llarning rasmiy shakllari talab qilinadi, norasmiy nutqda esa gap qisqaroq bo'lib, hurmat fe'l shakllari ishlatilmaydi.

Hurmatni ifodalashda olmoshlarning tanlovi ham muhim o'rin tutadi. Koreys tilida "sen" va "siz" ma'nolarini ifodalovchi turli olmosh shakllari mavjud:¹

Norasmiy shakl	Hurmat shakli
나 men	저 ("men" hurmat shakli)
너 sen	당신 ("siz" hurmat shakli)
그 u	그분 ("u" hurmat shakli)

Masalan:

너 뭐해? - "Sen nima qilyapsan?" (Norasmiy)

당신 뭐 하세요? - "Siz nima qilyapsiz?" (Hurmat shakli)

Ushbu olmoshlar suhbatdoshning maqomi va ijtimoiy mavqeyiga qarab turlicha tanlanadi.

Koreys tilida hurmat lingvistik tizimning ajralmas qismi bo'lib, u morfologik, sintaktik va leksik vositalar orqali ifodalanadi.

1.Morfologik jihatdan hurmat fe'l qo'shimchalari va maxsus hurmat shakllari yordamida amalga oshiriladi.

2.Sintaktik jihatdan hurmat gap tuzilishi, so'zlarning tartibi va fe'llarning joylashuvi orqali namoyon bo'ladi.

3.Leksik jihatdan esa maxsus hurmat bildiruvchi fe'l va so'z shakllari mavjud bo'lib, ular suhbatdoshning maqomiga bog'liq ravishda tanlanadi².

Til har qanday jamiyatning muhim kommunikativ vositasi bo'lib, uning lingvistik tizimi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hurmat kategoriyasi esa tilning pragmatik va sotsiolingvistik jihatlarida o'z aksini topib, suhbatdoshning maqomi, yosh darajasi, kasbiy mavqei, rasmiylik yoki norasmiylik holati kabi omillar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi³.

Hurmatning lingvistik ifodasi tillarning grammatika, sintaksis, morfologiya va leksik tizimlari orqali namoyon bo'lib, har bir tilda turlicha shakllangan. O'zbek tilida hurmatning ifodalanishi leksik-semantik, grammatik va pragmatik omillar orqali amalga oshirilsa, koreys tilida esa bu yanada qat'iy morfologik va sintaktik qoidalarga asoslangan murakkab tizimni tashkil qiladi.

O'zbek tilida hurmat ifodalash suhbatdoshning maqomiga, yoshiga, kasbiy va ijtimoiy mavqega qarab belgilanadi. Hurmat grammatik, leksik va pragmatik vositalar orqali ifodalanadi.

Morfologik darajada o'zbek tilida hurmat olmosh shakllari va fe'l qo'shimchalari asosiy ahamiyat kasb etadi.

Quyida hurmat shaklining shaxs olmoshida ko'rib o'tish joiz.

O'zbek tilida "sen" va "siz" shakllari orqali hurmat ifodalanadi:

Norasmiy shakl	Hurmat shakli
Sen qayerga ketyapsan?	Siz qayerga ketyapsiz?
Bu kitobni oldingmi?	Bu kitobni oldingizmi?
Uyga qachon qaytasan?	Uyga qachon qaytasiz?

"Sen" shakli do'stlar, tengdoshlar va oilaviy muhitda ishlatilsa, "siz" shakli yoshi katta shaxslar, rasmiy muhit va hurmatni talab qiladigan suhbatdosh bilan ishlatiladi.

O'zbek tilida fe'l shakllari orqali ham hurmat ifodalanadi. Masalan, buyruq gaplarda hurmat shaklini yaratish uchun "-ingiz" qo'shimchasi qo'shiladi:

¹ Cho, Y., Lee, H.S., Schulz, C., Sohn, H.-M., Sohn, S. "Integrated Korean: Beginning 1 (Vol.2)." University of Hawai'i Press, 2010, 12-bet

² Musulmonova, Nargiza. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida grammatik ma'no tarkibi." Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti, 2023, 3-4-bet

³ Sanaqulov, Usmon; Turobov, Abdurayim. "Tilshunoslik: nazariya va amaliyot." Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti, 2018, 127-128-bet

Oddiy shakl	Hurmat shakli
Kiring!	Kiringiz!
Oling!	Olingiz!
O'tir!	O'tiring!

Bu shakllar o'zbek tilida hurmat ifodalash jarayonida morfologik jihatdan qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini ko'rsatadi.

O'zbek tilida hurmat leksik birliklar orqali ham ifodalanadi. Hurmat bildiruvchi so'zlar va murojaat shakllari muloqotda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilida shaxsning maqomi va mavqeiga qarab hurmat ifodalovchi maxsus so'zlar ishlatiladi¹. Bu so'zlar suhbatdoshning yoshi, kasbi yoki ijtimoiy maqomiga bog'liq holda tanlanadi:

Norasmiy shakl	Hurmat shakli
Aka	Janob
Opa	Xonim
Domla	Ustoz
Bo'la	Qori aka

Masalan, aka va opa so'zlari tengdoshlar yoki yoshi kattalarga nisbatan ishlatiladi, janob va xonim esa rasmiy muhitda ko'proq qo'llaniladi.

O'zbek tilida hurmat muloyim murojaat shakllari orqali ham ifodalanadi:

"Marhamat qiling"

"Ruxsat bersangiz"

"Iltimos"

"Hurmat bilan"

Ushbu iboralar muloqotda suhbatdoshga nisbatan muloyimlik va hurmat ko'rsatishning leksik jihatdan qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Koreys va o'zbek tillari hurmat tizimining mavjudligi bilan umumiylikka ega bo'lsa-da, ular orasidagi lingvistik va sotsiolingvistik tafovutlar muhim rol o'ynaydi².

Koreys tilida hurmat rasmiy va norasmiy muloqotda qat'iy grammatik tizim orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu tizim ko'proq shaxs olmoshlari va fe'l shakllarining o'zgarishi orqali amalga oshiriladi.

Til	Hurmat ifodalash shakli	Misol
Koreys tili	Fe'l qo'shimchalari va hurmat shakllari	"갑 니 다"- "boraman" (yuqori hurmat shakli)
O'zbek tili	"Siz" olmoshi va maxsus fe'l shakllari	"Siz boryapsizmi?" (hurmat shakli)

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, koreys tilida hurmat morfologik o'zgarishlar orqali qat'iy belgilansa, o'zbek tilida u ko'proq shaxs olmoshlari va leksik vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Hurmatning ishlatilishi har ikki tilda ijtimoiy maqom bilan bevosita bog'liq. Koreys tilida suhbatdoshning yoshi va kasbiy mavqei asosiy omillar bo'lsa, o'zbek tilida esa hurmat asosan oilaviy tuzilma va ijtimoiy muhitga bog'liq holda shakllanadi.

Koreys tilida katta yoshdagi insonlar va yuqori maqomdagi kishilar bilan suhbatda katta rasmiylik talab etiladi.

O'zbek tilida esa hurmat ko'pincha shaxsiy munosabatlar va jamiyatdagi mavqega qarab belgilanadi.

Bu tafovutlar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda hurmat va ijtimoiy maqomning o'zaro bog'liqligi mavjud bo'lsa-da, ularning lingvistik ifodalash usullari turlicha shakllangan. Hurmat kategoriyasi o'zbek va koreys tillarida muhim pragmatik element bo'lib, u turli lingvistik vositalar orqali ifodalanadi.

O'zbek tilida shaxs olmoshlari, fe'l shakllari va hurmat bildiruvchi so'zlar asosiy rol o'ynaydi. Koreys tilida esa hurmat murakkab morfologik va sintaktik qoidalar yordamida

¹ Salimova, Nigina Bahtiyorovna; Do, Seon Hui. "Koreys tilida hurmat shakli va uning muloqotdagi o'rni." *Nauchniy Impuls*, 2023, 87-90-bet

² Salimova, Nigina Bahtiyorovna; Do, Seon Hui. "Koreys tilida hurmat shakli va uning muloqotdagi o'rni." *Nauchniy Impuls*, 2023, 87-90-bet.

ifodalanadi. Shunday qilib, hurmat va ijtimoiy maqomning til tizimiga ta'siri har bir jamiyatning madaniy qadriyatlari bilan bog'liq bo'lib, har bir til tizimi ushbu qadriyatlarni o'z lingvistik strukturasini orqali aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Sohn Ho-min – *Korean Language in Culture and Society* – University of Hawaii Press – 2006 – 320. Lee Ki-Moon – *A History of the Korean Language* – Cambridge University Press – 2010 – 336.
- [2]. Kim Hyun-Sook – *Honorifics and Politeness in Korean* – Saffron Books – 2014 – 256.
- [3]. A. Kholodovich – *Koreyskiy yazyk: Grammatika i lingvokul'turologiya* – Nauka – 1986 – 280.
- [4]. S. Bystrov – *Koreyskiy yazyk i kul'tura* – Vostochnaya literatura – 1995 – 312.
- [5]. A. Qayumov – *O'zbek tilining madaniy-ma'naviy qadriyatlari* – O'zbekiston – 2002 – 248. Sh. Shoabdurahmonov – *O'zbek tili va madaniyat* – Ma'naviyat – 1998 – 320.
- [6]. N. Mahmudov – *O'zbek tilining ijtimoiy lingvistikasi* – Fan – 2005 – 280.
- [7]. Brown, Penelope & Levinson, Stephen C. – *Politeness: Some Universals in Language Usage* – Cambridge University Press – 1987 – 150.
- [8]. Goffman, Erving – *Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior* – Anchor Books – 1967 – 270.
- [9]. Leech, Geoffrey – *Principles of Pragmatics* – Longman – 1983 – 86.
- [10]. Bayonkhanova Iroda Furkatovna Samarkand State Institute of Foreign Languages ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 23-29 DOI 10.5281/zenodo.6457490 © The Author(s) 2022. This article is distributed under a Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International license. <http://ajstfd.com/> Discursive-pragmatic characteristics of articles expressing the etiquette of communication (on the example of Korean and Uzbek languages)
- [11]. Баёнханова Ирода Фуркатовна Дискурсивно-прагматические характеристики статей, выражающих этикет общения (на примере корейского и узбекского языков) // ИДССР. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения : 30.11.2024).